

ALISHER NAVOIYNING “BADOYE UL-BIDOYA” ASARIDA FRAZEMALARNING QO‘LLANILISHI

Dildora Suyunova Sadriddin qizi

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani 72-sonli maktab ona tili va adabiyot
fani o‘qituvchisi

Email: dsuyunova28@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazemalarning leksik o‘rni, badiiy adabiyotda, xususan, eski turkiy til manbalarida qo‘llanilish darajasi, ularning sinonim, antonim va omonimlik xususiyatlari misollar asosida batafsil yoritilgan.

Abstract: This article covers in detail the lexical position of phrasemes, the degree of their use in fiction, in particular in old Turkic language sources, their synonymous, antonymic and homonymic properties based on examples.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается лексическое место фразеологизмов, степень их употребления в художественной литературе, в частности в источниках древнетюркского языка, их синонимические, антонимические и омонимические особенности на основе примеров.

Kalit so‘zlar: frazema, leksema, leksika, badiiy adabiyot, turkiy til, tilshunoslik.

Ma’lumki, frazeologiya (gr. phrasis – ifoda, logos – ta’limot) atamasi ikki ma’noda ishlatiladi: 1) til frazeologik tarkibini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologik majmui. Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Boshqacha aytganda, frazeologizm lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo‘lgan umumiylik tabiatiga ega va nutqda xususiylilik sifatida namoyon bo‘ladi. [1, 132-134] Xususan, frazemalarning qo‘llanilish doirasi turlicha. Frazeologik birliklarni mumtoz adabiyot namunalari ham uchratish mumkin. Alisher Navoiyning “Badoye ul-bidoya” asarida ham frazemalardan o‘rinli foydalanilgan. Asarda “og‘zi kuymoq”, “sorg‘orsa yuz”, “ko‘z tushsa” singari frazemalarni ko‘rishimiz mumkin. Bunda til nuqtayi nazaridan frazemalardan ham leksik, ham badiiy jihatdan foydalanilgan. Masalan, Navoiy “Ey, nubuvvat xaylig‘a xotam bani Odam aro...” nomli g‘azalida “Yasribda yirtibtur yuzin timog‘ ila”

iborasini qo‘llaydi. Bilamizki, g‘azaliyotda oshiq dardi va yor vasli birinchi darajaga ko‘tariladi. Navoiy ushbu ibora orqali yorining ishtiyoqida yongan oshiq yorini kuta-kuta yuzini tirnog‘I bilan timdalashi, ya‘ni uni deb qiynalishi tasvirlangan. Aytish joizki, frazeologizm tashqi ko‘rinishi jihatidan so‘z birikmasi yoki gap ko‘rinishida bo‘ladi. Devonda berilgan “jon olmoq”, “tosh otmoq”, “ko‘z tushsa”, “sabr soldimko‘ngluma” singarilar gap tipidagi iboralardir. “ko‘ngli dog‘”, “achchiq so‘z”, “jism qurug‘on” kabilar so‘z birikasi tipidagi frazemalardir. Shuningdek, Navoiy o‘xshatishlar asnosiga qurilgan frazemalarni ham mahorat bilan qo‘llay olgan:

Toki chekti o‘qu yo qasding‘a ul mujgoni qosh,
Ayladi paykonlari har sori bag‘rimni xarosh.
Pardayi sabru salomat yoyibon, ey bag‘ritosh,
Yoshurub erdim bag‘ir chokini vahkim, qildi fosh
Har taraf ko‘zdin tarashshuh aylagan qon oqibat.

Bunda “bag‘rimni xarosh” – “bag‘rini tiralamoq” iborasi qo‘llanilgan. Shoir yorning kipriklari o‘q misol bag‘rini yaralagani, ya‘ni kasal, bedor qilgan. Yana “bag‘ir choki” ham shu ma‘noda ma‘nodoshi sifatida ishlatilgan. Hamda ushbu muxammasda ayrim leksik birliklarning frazemalarning tadrijiy mahsulini ko‘rish mumkin: “bag‘ritosh”.

Devonda “xazon yeli esmoq” – “umr o‘tmoq”, “yuzim tufroqdadir” – “ado bo‘lmoq”, “ko‘ngli tushmoq” – “yoqtirmoq”, “bag‘rini kabob qilmoq” – “xafa qilmoq”, “ko‘ngli dog‘” – “xafa”, “isyon yukini tortmoq” – “g‘am-tashvish, “ojiz ko‘rmoq” – “biror ishni eplay olishiga ishonmaslik” singari frazemalarni ko‘rishi mumkin.

Iboralar hamxuddi so‘zlar kabi shakl va ma‘no butunligiga ega. (Ko‘p ma‘noli, sinonim, antonim, omonim). [2, 105]. Ushbu holatni quyidagi msralarda ko‘rish mumkin:

Ko‘z tutar erdim qalam kirpiklaridin bog‘la deb,
Gar azalda ko‘rsam erdi surating naqqoshini.

Bunda “ko‘z tutmoq” frazemasi shakldosh frazema hisoblanadi, ya‘ni ko‘z tutmoq (kutmoq) – ko‘z tutmoq (biror predmetga ko‘zini tutib qarash). Shuningdek, “og‘zi kuymoq”, “yuz ochmoq”, “ko‘z yummoq”, “jon olmoq” iboralari ham omonim iboralar hisoblanadi.

Sinsa ko‘nglumda o‘qung surtub isig‘ qondin anga,

Pay masallik chirmag‘aymen rishtayi jondin anga

Ko‘nglimga sho‘r soldi birovning malohati,

Vahkim, ajab tuz o‘ldi yana zaxmim ofati.

Bunda shoir sinonimlardan o‘rinli foydalana olgan: ko‘ngli sinmoq (xafa bo‘lmoq, qayg‘uga tushmoq) – ko‘ngliga sho‘r solmoq (xafa qilib qo‘ymoq, o‘ylantirmoq).

Odatda frazeologizmning ma‘nosi bir leksema ma‘nosiga teng deyiladi. Fikrimizcha, bu nazariya munozarali. Chunki frazeologizm va leksema ma‘nosi teng bo‘lsa, unda frazeologizm ortiqcha bo‘lib qolar edi. Misol sifatida “Tufroq ila teng bo‘lmisham” (tuproq bilan teng ko‘rmoq) iborasi bilan “mensimaslik” leksemasining ma‘nolarini olaylik. Mazkur frazeologizm “yer bilan bitta ko‘rish, o‘ta darajada hatto umuman nazariga ilmaslik” bo‘lsa, “mensimaslik” leksemasida esa “bee‘tibor qoldirish” sememasiga ega. Har ikkalasida ham ichki ruhiy holat aks etgan bo‘lib, biroq frazeologizm ma‘nosida o‘ta darajada va u so‘zlashuv uslubiga xos hamda bo‘yoqdor ma‘noga egaligi bilan “mensimaslik” leksemasidan farq qiladi. Demak, frazeologizmning ifoda semalarida bo‘yoqdorlik, obrazlilik bo‘rtib turadi. Leksemada esa umumslubiy hamda bo‘yoqdorlik xususiyatiga ega bo‘lmaydi. Ko‘rinadiki, frazema bilan leksema bir narsa yoki hodisani atasa-da, ifoda bo‘yoqlari bilan keskin farq qilib turadi.

Frazeologizm tarkibida ayrim so‘zning ko‘chma ma‘noda, boshqalarning o‘z ma‘nosida qo‘llanilishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan,

Tortasen isyon yukin, xam qil qading toatg‘akim

Yuk og‘ir bo‘lsa, ruku’ ul dam bo‘lur nochor anga.

Umr g‘aflat uyqusi birla tilarsen, kecha, oh,

Ko‘z yumub-ochquncha kimning i‘timodi bor anga?

“Devon”dan o‘rin olgan ushbu misralarda keltirilgan “isyon yukini tortmoq” (g‘am-tashvishda yashamoq), “g‘aflat uyqusi” (hayotdan uzilish, keraksiz o‘y-xayollarga berilish), “ko‘z yumub-ochquncha” (vaqtning tezda o‘tib ketishi) frazemalari o‘xshatish orqali yuzaga kelgan. Yuk og‘ir va u biror predmetga nisbatan aytiladi, biroq isyonning yuki bo‘lmaydi. G‘aflatda qolish esa hayotga ma‘nosiz qarash demakdir. Shirin uyqu bo‘lishi mumkin, ammo g‘aflat uyqusi yo‘q. Ko‘zni yumib-ochgunimizchadagi oraliqdagi soniyalarda umr o‘tib ketmaydi,



qandaydir holat, kichi voqea sodir bo‘lishi mumkin, lekin ko‘zni ochib-yumungachadagi vaqtda keksayib, yoshimiz ulg‘ayib qolmaydi.

Frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik bo‘lib, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan Alisher Navoiy qalamiga mansu “Badoye ul-bidoya” asaridagi fazemalarning qo‘llanilishi, qay holatda kelishi va nima asosda yuzaga kelganligi borasida bir qancha ma‘lumotlar keltirildi. O‘sha davr manbalarida ham iboralardan o‘rinli va samarali foydalanilganiga guvoh bo‘ldik. Bir so‘z yoki jumla orqali bir necha ma‘nolarning berilishi, bitta so‘zning o‘zga shaxsga o‘xshatish asosida ta‘sirli yo‘l bilan berilishi insonni hayratga soladi. Bu haqiqiy so‘z qudrati va undan o‘rinli foydalana olish mahoratidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
2. Xolmanova Z. T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007.



Research Science and Innovation House